

**MUS'HAF YOZUVINI O'RGANISH ILMI VA QUR'ONDAGI AYRIM
SO'ZLARNING ADABIY ARAB TILI BILAN QIYOSIY TAHLILI**

Hamroqulova Robiyaxon

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti,

Tarjimonlik fakulteti,

"Arab tili tarjima nazariyasi va amaliyoti"

kafedrasi stajor-o'qituvchisi

robiya127@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqola Mus'haf yozuvini o'rganish ilmi va u o'z ichiga qamrab oluvchi mavzular haqidagi ma'lumotlarni jamlagan va mavzuga aloqador muallifning bir qator qiyosiy tahlillarini aks ettirgan. Maqolada ayrim so'zlarning Usmon Mus'hafida va adabiy arab tilida yozilishi orasidagi farqlar "Alif" misolida, jadval shaklida taqdim etiladi. Muallif mavzu doirasida yozilgan asarlar bilan o'quvchini tanishtiradi. Natijada, o'quvchida ishonchli va ob'ektiv ma'lumotlar shakllanishiga zamin yaratgan.

Kalit so'zlar: Qur'on, Mus'haf, Usmon ibn Affon, bosma nashr, alif, ya, yozuv qoidalar.

Abstract: This article compiles information about the science of studying the script of the Mushaf and the topics it encompasses, reflecting several comparative analyses conducted by the author on the subject. Differences in the spelling of certain words between the Uthmanic Mushaf and standard Arabic are presented in a table format, using the example of the letter "Alif". The author acquaints readers with works written within the scope of the topic, ultimately fostering reliable and objective knowledge in readers.

Keywords: Quran, Mushaf, Uthman ibn Affan, printed edition, alif, waw, ya, writing rules.

Аннотация: В данной статье собрана информация о науке изучения письма Мусхада и связанных с этим темах, а также представлены сравнительные анализы, проведенные автором. Различия в написании некоторых слов в Усмановском Мусхаде и литературном арабском языке представлены в таблице на примере буквы «Алиф». Автор знакомит читателей с работами, написанными по этой теме, что способствует формированию у читателя достоверных и объективных знаний.

Ключевые слова: Коран, Мусхад, Усман ибн Аффан, печатное издание, алиф, вав, ѿа, правила написания.

الملخص: تجمع هذه المقالة معلومات حول علم دراسة كتابة المصحف والموضوعات المتعلقة به، وتعكس مجموعة من التحليلات المقارنة التي أجرتها المؤلف. يتم تقديم الفروق في كتابة بعض الكلمات بين مصحف عثمان واللغة العربية الأدبية في شكل جدول باستخدام مثال حرف "الألف". يُعرف المؤلف القاري بالأعمال المكتوبة في نطاق هذا الموضوع، مما يساهم في تشكيل معلومات موثوقة وموضوعية لدى القارئ.

الكلمات المفتاحية: القرآن، المصحف، عثمان بن عفان، الطبعة المطبوعة، الألف، الواو، الياء، قواعد الكتابة.

Mus'haf yozuvini o'rganish ilmi yoki arab tilida "Ilm rasm al-mus'haf" — Qur'oni Karimning yozilish qoidalari va uning asl shaklida saqlanishiga bag'ishlangan maxsus ilmdir. Qur'on Allohning mukammal kalomidir va uning har bir harfi, so'zi, oyati insonlarga mukammal yo'l-yo'riq berish maqsadida nozil qilingan. Bu ilm Qur'oni yozishda aniq qoidalarga rioya qilish orqali unga turli davrlarda kiritilishi mumkin bo'lgan o'zgarishlardan himoya qiladi. Ushbu ilm Qur'on kalimalari va harflarini Usmon ibn Affon roziyallohu anhu davrida yozilgan mus'haflardagi yozuv qoidalari va tartiblari bilan o'rganishga ixtisoslashgan.

Qur'on yozushi odatiy arab tili imlosidan farq qiluvchi xususiyatlarga ega bo'lib, ba'zi harflarni tushirish yoki qo'shish yoki ayrim kalimalarning yozilishi bilan o'qilishidagi farqlarni o'rganadi. Shu sababli bu ilm Allohning kalomini o'zgartirmay saqlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Qur'onnинг yodda saqlanishi Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) davrida asosiy usul bo'lgan. Rasululloh (s.a.v.) oyatlar nozil bo'lganidan so'ng, ularni sahobalarga o'qib eshittir va yodlatar edilar¹. Shu bilan birga, Qur'on oyatlari yozib ham borilgan. Rasululloh (s.a.v.)ning vafotidan so'ng, Qur'oni yod olgan qorilar soni kamayishni boshladi va bu holat Qur'oni to'liq yozma shaklda saqlab qolish zaruratini tug'dirdi.

Imom Zarkashiy o'zining "Burhon fi ulum al-Qur'on" asarida bu ilmni bir qancha qismlarga bo'ladi. Avvalo, "Zoid (ziyoda qilingan) va uning turlari" deya uning uch turini keltiradi: "Alif'ning ziyoda qilinishi", "Vov"ning ziyoda qilinishi" va "Ya"ning ziyoda qilinishi"². Har bir turga ta'rif berib, ko'plab misollar keltiradi. So'ngra, "Noqis (tushirib qoldirilgan) va uning turlari" degan sarlavha bilan, yana uch turni keltiradi: "Alif'ning hazf qilinishi (ya'ni tushirib qoldirilishi)", "Vov"ning hazf qilinishi", "Ya"ning hazf qilinishi va "Nun"ning hazf qilinishi". Shuningdek, so'zlarning qo'shib va ajratib yozilishi, ayrim idg'om harflari hamda suralarning boshlanishi haqidagi boblarni keltiradi.

Xalifa Abu Bakr Siddiq (r.a.) davrida Qur'on to'liq shaklda jamlangan. Keyinchalik, Xalifa Usmon ibn Affon (r.a.) davrida xalifalik hududining benihoya kengayishi natijasida turli dialektlar va o'qish uslublari (qiroat) sababli qo'shimcha xatolar paydo bo'lmagligi uchun Qur'on yagona shaklga keltirildi. Xalifa Usmon bir nechta yozma mus'haflar nusxalarini ko'chirtirib, Islom olamining turli hududlariga yuborgan. Xalifa Usmon bu vazifani Zayd ibn Sobitga topshirgan. Qachonki ixtilof bo'lsa, Quraysh tilida yozishga amr qilgan. Chunki Qur'on Quraysh tilida nozil bo'lgan³. Bu mus'haflar "Usmon Mus'hafi" nomi bilan tanilgan va ushbu mus'haflarning yozuv shakli hamon Qur'on yozish qoidalariiga asos bo'lib kelmoqda.

Quyida ayrim so'zlarning Mus'hafda yozilishi va zamonaviy arab tilida yozilishi orasidagi farqlar keltiriladi va namuna uchun "Alif" tanlandi:

¹ Hasanov A. Ilk islam tarixidan ma'ruzalar. – T.: Movarounnahr, 2017. – B. 86.

² Muhammad ibn Abdulloh Zarkashiy. Al-Burhon fi ulum al-Qur'on. – Qohira: Dor al-hadis, 2006. – B. 261-265.

³ Muhammad ibn Abdulloh Zarkashiy. Al-Burhon fi ulum al-Qur'on. – Qohira: Dor al-hadis, 2006. – B. 258.

	Qur'on Mus'hafida	Arab tilida
“Alif”ning ziyoda qilinishi	مَائَةٌ (Baqara surasi 259-oyat), (Baqara surasi 261-oyat) عِيسَى بْنُ مَرْيَمْ (Baqara surasi 87-oyat), (Moida surasi 46-oyat), (Hadid surasi 27-oyat)	مِئَةٌ عِيسَى بْنُ مَرْيَمْ
“Alif”ning tushib qolishi	كِتَابٌ (Hud surasi 1-oyat), (Fussilat surasi 3-oyat) قُرْآنًا (Yusuf surasi 2-oyat), (Zuhurf surasi 3-oyat) بِسْمِ اللَّهِ (Hud surasi 41-oyat), (Naml surasi 30-oyat) أَبُو ابْهَا (Zumar surasi 73-oyat) أَمْلَكُمْ (Voqea surasi 61-oyat)	كِتَابٌ قُرْآنًا بِسْمِ اللَّهِ أَبُو ابْهَا أَمْلَكُمْ
“Alif” o‘rniga “vov” yozilishi	الصَّلَاةُ (Baqara surasi 3-oyat), (Baqara surasi 43-oyat), (Niso surasi 43-oyat), (Moida surasi 6-oyat) الزَّكَوةُ (Baqara surasi 43-oyat), (Baqara surasi 177-oyat), (Niso surasi 77-oyat), (Fussilat surasi 77-oyat) الْحَيَاةُ (Baqara surasi 85-oyat), (Baqara surasi 179-oyat), (Oli Imron surasi 14-oyat), (Niso surasi 109-oyat), (Yunus surasi 7-oyat) بِالْغَدَوةِ (An'om surasi 52-oyat)	الصَّلَاةُ الزَّكَوةُ الْحَيَاةُ بِالْغَدَوةِ

Ilm rasm Mus'haf yozuv ilmining asosiy maqsadi — Qur'onning asl yozish qoidalari va uning nozil qilinganidek to‘g‘ri saqlanishini ta'minlash. Mus'haf yozishda faqat harflarni emas, balki harakat belgilarini ham aniq qoidalarga asosan qo‘yish kerak bo‘ladi. Qur'onagi kichik o‘zgarish ham ma’nolarga jiddiy ta’sir etishi mumkin. Shu sababli, Mus'haf rasmini o‘rganish ushbu kalomning qoidani buzmagan holda saqlanishiga katta e’tibor beradi.

Imom Ahmad ibn Xanbal: “Usmon Mus'hafining yozuviga “ya”, “vav”, “alif” va undan boshqalarda xi洛 qilish xarom qilingan”, - dedilar⁴.

Rasm al-Mus'hafning masalalari:

– Harflar yozilishi: Rasm Mus'hafda harflarning yozilishida juda qat’iy qoidalari mavjud. Masalan, arab tilidagi ba’zi harflar o‘rtasidagi birlashuvlar yoki ajratishlar muhimdir.

– Qo‘sishcha belgilar: Qur'on yozishda ayrim kalimalarda yozuvda hozir bo‘lib, o‘qishda eshitilmaydigan qo‘sishcha harflar bor. Ularning yozilishiga rioya qilish qoidalari ilmiy darajada o‘rganiladi.

⁴ Muhammad ibn Abdulloh Zarkashiy. Al-Burhon fi ulum al-Qur'on. – Qohira: Dor al-hadis, 2006. – B. 260.

– Qiroat turlari: Rasm Mus'haf doirasida qiroatlar (Qur'onni o'qish uslublari) bilan bog'liq yozish qoidalari ham joy olgan. Ayrim qiroat turlariga ko'ra, ba'zi so'zlarni turlichay yozilishi mumkin, bu esa Qur'onning yozilishida o'ziga xos muammolarni hal qilishni talab qiladi.

Imom Suyutiy o'z asarlarida rasm Mus'haf ilmini keng yoritgan olimlardan biridir⁵. Uning fikricha, Qur'onni yozishda har bir harakat, harflar o'zaro uyg'unlikda saqlanishi kerak va uning o'zgartirilmamasligi Qur'onning asl holatida saqlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Qur'onni yozishdagi har qanday o'zgarish yoki xatolik kelajakda yangi avlodlar uchun ma'nolarning o'zgarishiga olib kelishi mumkin. Har bir harf va belgi muhimligini hisobga olsak, ilm rasm Mus'haf Qur'oni Karimning yozilishidagi har bir o'ziga xos jihatni saqlab qolish uchun juda muhim ahamiyatga ega. Bu ilm Qur'onning asl holatini saqlashda va uni har qanday ta'sirlardan himoya qilishda xizmat qiladi.

Bugungi kunda ilm rasm Mus'haf zamonaviy texnika va texnologiyalar yordamida ham to'g'ri yozishni ta'minlaydi. Elektron va bosma mus'haflar paydo bo'lishi bilan birga, yozishdagi xatolardan qochish uchun ko'plab zamonaviy dasturlar ishlab chiqilgan. Shunday bo'lsa-da, qo'l yozma shaklidagi mus'haflarning qadr-qimmati katta bo'lib, ulardagi asl yozish shakli ilmiy ahamiyatga ega.

Ushbu sohada Ibn Banno Marokashiy nomi bilan mashhur Abu Abbas Ahmad ibn Muhammad Azdiyning (vafoti hijriy 721-yil) "Unvan ad-dalil min marsum xat at-Tanzil" nomli asari mavjud. Mazkur asar Muqaddima, "Hamza" bobi (hamza so'zning avvalida kelishi), (hamza so'zning oxirida kelishi), (hamza so'zning o'rtasida kelishi)⁶; "Alif" bobi (zoida "alif"), (hazf qilingan "alif"), ("Vov" va "ya" harflariga o'zgartirilgan "alif")⁷; "Vov" bobi (yozuvda orttirilgan "vov"), (yozuvda tushirib qoldirilgan "vov"); "Ya" bobi (yozuvda orttirilgan "ya"), (yozuvda tushirib qoldirilgan "ya")lardan iborat. Har bir bob o'z navbatida ichki bo'limlarga bo'lingan. Har bir bo'limda mavzu doirasida ko'plab misollar keltirilgan. Shuningdek, Ibn A'shir Andalusiy va Abu Amr Andalusiyarning ham mavzuga doir asarlari mavjud.

Qur'onni yozish va uni asl shaklida saqlash Islom dinining muhim vazifalaridan biri bo'lib kelgan. Ilm rasm al-Mus'haf Qur'oni Karimning yozilish qoidalari o'rGANISH va ularga qat'iy amal qilish orqali Allohning kalomini o'zgarishlardan saqlashga xizmat qiladi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yhati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023. <https://lex.uz/docs/6445145>
2. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 488 b.
3. Mirziyoyev Sh. M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – 400 b.

⁵ Jaloliddin Suyutiy. Itqon fi ulum al-Qur'on. – Bayrut: Muassasa ar-risala, 2008. – B. 743-752.

⁶ Abu Abbas Ahmad ibn Banno Marokashiy. Unvan ad-dalil min marsum xat at-Tanzil. Bayrut: Dar al-g'orob alislamiy, 1990. – B. 35.

⁷ Abu Abbas Ahmad ibn Banno Marokashiy. Unvan ad-dalil min marsum xat at-Tanzil. Bayrut: Dar al-g'orob alislamiy, 1990. – B. 55.

4. Hasanov A. Ilk islom tarixidan ma'ruzalar. – Toshkent: Movarounnahr, 2017. – 376 b.
5. Jaloliddin Suyutiy. Itqon fi ulum al-Qur'on. – Bayrut: Muassasa ar-risala, 2008. – 832 b.
6. Muhammad ibn Abdulloh Zarkashiy. Al-Burhon fi ulum al-Qur'on. – Qohira: Dor al-hadis, 2006. – 1228 b.
7. Abu Abbos Ahmad ibn Banno Marokashiy. Unvan ad-dalil min marsum xat at-Tanzil. Bayrut: Dar al-g'orob al-islamiy, 1990. – 160 b.